

## **“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:**

### **32-mavzu: “Innovatsion fikrlash”**

---

**Umumiy maqsad:** O‘quvchilarda muammolarga tizimli, tanqidiy va innovatsion yondashuvni shakllantirish, g‘oyani amaliy yechimga aylantirish madaniyatini rivojlantirish hamda kelajak kasblari va texnologiyalariga ongli qiziqish uyg‘otish.

**Annotatsiya:** Mazkur mashg‘ulotda o‘quvchilar innovatsion fikrlash mohiyatini chuqur anglaydilar, kreativlik va innovatsiya o‘rtasidagi farqni tahlil qiladilar, real hayotiy muammolar asosida g‘oya ishlab chiqish va uni asoslab berish (pitch) ko‘nikmalarini mashq qiladilar. Mashg‘ulot bahs, muammoli vaziyat, guruhli loyiha va refleksiya metodlari asosida olib boriladi.

#### **Aniq maqsadlar:**

O‘quvchilarga innovatsiya va kreativ fikrlash tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniq va tushunarli tarzda anglatish;

O‘quvchilarda muammolarga tanqidiy yondashish, “nega?”, “boshqacha bo‘lsa-chi?”, “yana qanday yechim bor?” kabi savollar orqali fikrlash faolligini shakllantirish;

Tasavvur, ijodkorlik, mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Har bir o‘quvchining shaxsiy g‘oyasi va tashabbusi qadrligi ekanini anglatish, o‘z fikrini ilgari surishga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash.

#### **Asosiy g‘oyalar:**

Innovatsion fikrlash – bu mavjud muammo yoki vaziyatga yangicha yondashuv asosida yechim topish jarayonidir.

Har bir yosh, bilim va imkoniyatidan qat’i nazar, innovator bo‘lish salohiyatiga ega.

Katta ixtiro va yutuqlar oddiy savol va kichik g‘oyalardan boshlanadi.

Kelajak jamiyati bugungi yoshlarning fikrlashi, tashabbusi va innovatsion qarashlari asosida shakllanadi.

#### **Kutilayotgan natijalar:**

##### **1. Aqliy (kognitiv) darajada**

O‘quvchilar innovatsiya va innovatsion fikrlash tushunchalarining mazmunini anglab yetadi. Muammolarga turli nuqtayi nazardan qarash va alternativ yechimlarni ko‘ra olish ko‘nikmasi shakllanadi.

##### **2. Hissiy (motivatsion) darajada**

O‘quvchilarda o‘z fikrini ochiq ifodalashga nisbatan ishonch paydo bo‘ladi.

Yangilik yaratish va tashabbus ko‘rsatishga bo‘lgan ichki motivatsiya kuchayadi.

### **3. Amaliy darajada**

O'quvchilar real yoki hayotiy muammolarga ijodiy va mantiqiy yechimlar taklif eta oladi.

Guruhda ishlash, fikr almashish va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

### **4. Ijtimoiy jihatdan**

O'quvchilar shaxsiy g'oya va tashabbus orqali jamiyat rivojiga hissa qo'shish mumkinligini anglaydi. Fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollik hissi shakllanadi.

**Metapredmet yondashuv:** "Innovatsion fikrlash" mavzusi turli fanlar bilan uzviy bog'langan holda quyidagicha amalga oshiriladi:

Texnologiya: mavjud buyum va jarayonlardan yangi, samarali foydalanish yo'llarini izlash.

Matematika: mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosalar chiqarish.

Ona tili va adabiyot: fikrni og'zaki va yozma ravishda aniq, mantiqli ifodalash.

Tasviriy san'at: tasavvur, vizual fikrlash va g'oyani obraz orqali ifodalash.

Tarbiya: o'ziga ishonch, mas'uliyat, hamkorlik va tashabbuskorlik fazilatlarini rivojlantirish.

**Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

**Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

**Tavsiya etilgan shakl:** Bahs-suhbat, video lavha, rolli o'yin, jamoaviy loyiha va taqdimot.

## I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

*O'qituvchi oddiy krujka yoki choynakni ko'rsatib sinfga murojaat qiladi.*

**O'qituvchi:** Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar. Mana bu oddiy krujkani (choynakni) ko'rib turibsizlar. Uni har kuni ishlatamiz.

Endi tasavvur qiling: shu krujka (choynak) ichidagi choyni o'zi issiq holatda ushlab tursa, siz qancha suv ichganingizni hisoblasa va hatto bu ma'lumotlarni telefoningizga signal qilib yuborib tursa... Shunda bu hamon oddiy krujka yoki choynakligicha qoladimi yoki boshqa narsaga aylanadimi?

*O'quvchilar fikri tinglanadi.*

**O'qituvchi:** Aslida, bu suyuqlikni ichida saqlaydigan idish bo'lib qolaveradi. Lekin endi qulayliklari ko'proq bo'ladi, foydaliroq bo'ladi. Chunki kimdir shu buyumga boshqacha nazar bilan qarab uni takomillashtirib, gadjetga aylantirgan bo'ladi.

Innovatsiya aynan shu joyda boshlanadi – hamma ko'rgan narsaga boshqacha nazar bilan qarashda.

Bugungi darsimiz ham aynan shu innovatsion fikrlash haqida.

Qani kim ayta oladi, innovatsiya nima?

*O'quvchilarning javoblari tinglanadi.*

**O'qituvchi:** Innovatsiya – bu muammo yoki ehtiyojni hal qilish uchun yangi g'oya yoki qulay usul topish va uni hayotda ishlatish demakdir.

Oddiy qilib aytganda, innovatsiya – yangilikni o'ylab topishgina emas, balki uni amalda qo'llab foyda keltirishdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda innovatsion siyosatni izchil yo'lga qo'yib, "Smart shahar", "Smart maktab", elektron hukumat va zamonaviy IT infratuzilmasini rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratdi.

Shuningdek, yoshlar uchun zamonaviy texnologiyalarni o'rganish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, IT sohasini rivojlantirish bo'yicha ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozir sizlar bilan shu islohotlar aks etgan qisqa videoni tomosha qilamiz.

### Vizual kontent

**Innovatsiya – bizning kelajagimiz!**

[https://t.me/kelajaksoati\\_rasmiy/554](https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/554)

**O'qituvchi:** Demak, kelajak kimlarning qo'lida? Albatta, sizlarning qo'lingizda. Shu sababli bugun biz sizlar bilan kelajak uchun innovatsiyalar mavzusida gaplashamiz.

## II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

**O‘qituvchi:** Innovatsiyani oddiy yangilikdan farqi nima? Masalan, soat millari o‘ngga qarab harakatlanadi-a? Siz millari teskari aylanadigan soat ishlab chiqarmoqchisiz. Bu yangilik, albatta. Lekin bu innovatsiyami? Kim javob beradi?

*O‘quvchilar javoblari tinglanadi*

**O‘qituvchi:** Albatta, bu innovatsiya emas. Yangilik innovatsiya bo‘lishi uchun qator shartlari bor.

Innovatsiyaning asosiy belgilari (*doskaga yozish mumkin*):

Yangilik bo‘lishi – yangi g‘oya, buyum yoki usul bo‘lishi kerak.

Ishlashi – faqat gapda emas, hayotda foyda berishi lozim.

Foyda keltirishi – ishni osonlashtirishi, vaqtni tejashi, daromad keltirishi lozim.

Masalan:

- Oddiy telefonlar o‘rniga smartfonlar paydo bo‘ldi.
- Hujjatlarni qo‘lda yozish o‘rniga kompyuter va printerlar ishlatilmoqda.
- Bugungi kunda maktablarda o‘quvchilar va o‘qituvchilar e-Maktab tizimi orqali ishlamoqda.
- Universitetlarda hujjatlar Hemis tizimi yordamida kompyuterda yuritilmoqda.
- Hozirgi kunda mashhur bo‘lib borayotgan sun‘iy intellekt ham innovatsiyaga misol bo‘la oladi.

Demak, innovatsiya – hayotni qulay va oson qiladigan foydali yangilikdir.

Masalan, telefon ixtiro qilinmasidan avval odamlar uzoqdagi inson bilan ovozi eshitib gaplashishni imkonsiz deb o‘ylashgan. Ammo innovatsiyaga o‘ch bir inson boshqacha fikrladi – “nega masofadan turib gaplashish mumkin bo‘lmazligi kerak?” dedi. Ya’ni mavjud holatga rozi bo‘lmadi va uni o‘zgartirmoqchi bo‘ldi. Shu fikr natijasida bugungi smartfonlar paydo bo‘ldi.

**O‘qituvchi:** Qani, aziz o‘quvchilar sizlar ham innovatsiyalarga misollar keltira olasizmi?

**O‘quvchilar:** (*turli xil fikrlar bildiriladi*).

**O‘qituvchi:** Barakalla, azizlarim! Endi ayting-chi, innovatsion fikrlovchi odam qanday bo‘lar ekan?

**O‘quvchilar:** (*turli xil fikrlar bildiriladi*).

**O‘qituvchi:** Innovatsion fikrlovchi inson – bu kreativ o‘ylay oladigan, muammolarga odatiy emas, ijodiy va samarali yechim topa biladigan insondir.

Innovatsion fikrlovchi insonning asosiy xususiyatlari:

✓Qiziquvchan bo‘ladi: “Nega shunday?”, “Boshqacha qilish mumkinmi?”, deb o‘ylaydi.

✓Yangilikka ochiq bo‘ladi: yangi g‘oya va texnologiyalarni o‘rganishni yoqtiradi.

✓Muammolardan qo‘rqmaydi: muammoni imkoniyat, deb biladi.

✓Ijodkor bo‘ladi: noodatiy fikr va g‘oyalarni taklif qiladi.

✓Sinab ko‘rishga tayyor bo‘ladi: xato qilishdan qo‘rqmaydi, tajriba qiladi.

✓Amaliy fikrlaydi: o‘ylagan g‘oyasini hayotda qo‘llashga harakat qiladi.

✓O‘z ustida ishlaydi: doim o‘rganadi va rivojlanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, innovatsion fikrlovchi inson – bu kelajakni o‘ylaydigan, yangilik yarata oladigan va uni hayotda qo‘llay oladigan shaxsdir.

Dunyoni o‘zgartirgan har bir narsa kimningdir yangicha fikridan boshlangan. Innovatsion fikrlash – bu mavjud narsani boshqacha ko‘rish, o‘z g‘oyasini haqiqatga aylantirishdir. Qani, endi ayting-chi, siz innovatsion fikrlaydigan kishilardan kimlarni bilasiz?

*O‘quvchilar misol keltiradilar.*

**O‘qituvchi:** Barakalla, aziz o‘quvchilar!

Global dunyoda kimdir biror yangilik o‘ylab topsa va u insoniyatga foyda keltirsa, buning xabari bir zumda keng yoyiladi. Shu sababli bugun siz tengi yoshlar Stiv Jobs, Mark Sukerberg, Pavel Durov, Jeyms Dayson kabi insonlarning nomini yaxshi bilasiz. Ular shou-biznes yulduzlari, kinoaktyorlar va sportchilar kabi mashhur va badavlat insonlar. Ularni bu darajaga olib chiqqan esa aynan yangi g‘oyalari, innovatsiyalari va bulardan insoniyatga katta foyda kelayotganidir.

Demak, bu shaxslarning barchasini birlashtiradigan jihat – yangicha fikrlash, izlanishdan to‘xtamaslik va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy eta olishdir.

Keling, hozir o‘z innovatorligi bilan dunyoni o‘zgartirgan va millionlab insonlarning hayotini yaxshilashga sabab bo‘lgan buyuk insonlar haqida hikoya qiluvchi videoni tomosha qilamiz. Monitorga qaraymiz.

## **Vizual kontent**

### **Uch mashhur innovator hikoyasi**

<https://youtu.be/PNIHHFoXa50>

**O‘qituvchi:** Biz sizlar bilan “Startaplar” mavzusida gaplashganimizda innovatsion fikrlash haqida ham qisqa to‘xtalgan edik, esingizda bo‘lsa. Bugungi kunda kreativlik, innovatsiyalar va startap so‘zlari yonma-yon kelyapti.

*Doskaga yozadi.*

### **Kreativlik – Innovatsiya – Startap**

**O‘qituvchi:** Endi muhim savol: kreativlik, innovatsiya va startap o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

Kreativlik bu g'oya. Ya'ni siz o'ylaysiz, tasavvur qilasiz va qandaydir yangi g'oyani topasiz. Masalan, zaryadi bir haftagacha yetadigan telefon odamlarning vaqtini va elektr tokini tejaydi, shunday telefon yarataman degan g'oya o'ylaysiz. Lekin bu hali g'oya, xolos.

Innovatsiya esa shu g'oyani amalga oshirishdir. Ya'ni siz hamma qiyinchiliklar, xatolardan o'tib, tajribalar qilib shunday telefonni yasab stolga qo'ysangiz, shu innovatsiya bo'ladi.

Startup esa bu g'oyani biznesga aylantirish. Ya'ni shu bir nusxa telefonni million nusxalarda chiqarib sota olsangiz va shundan daromad topsangiz, shu startup bo'ladi.

Oddiy misol: "Agar darslar virtual bo'lsa yaxshi bo'lardi" – bu kreativ fikr.

"Men virtual laboratoriya yaratdim va u dars jarayonida ishlatilmoqda" – bu innovatsiya.

Demak, kreativlik – g'oya bosqichi. Innovatsiya – amal bosqichi. Innovatsion fikrlash – mana shu ikki bosqichni bog'lay oladigan tafakkurdir.

Birinchi kreativlik, keyin innovatsiya, undan keyin startup keladi. Bu uchlik bir zanjirga o'xshaydi.

Keling, hozir o'z kreativ g'oyasini avval innovatsiyaga, so'ng startupga aylantirgan vatandoshimiz bilan suhbatni tomosha qilamiz. U o'z muvaffaqiyatli startupiga yetib kelguncha o'tgan yo'li, qilgan xatolari, yutuqlarining bahosi va tavsiyalari bilan o'rtoqlashadi.

## **Vizual kontent**

**"Juda ko'p xato qilganman" – Otabek Suvonov**

<https://youtu.be/nOiREFsUmcQ>

## **Interaktiv o'yin: "Tezkor g'oya (Mini-startup)".**

**O'qituvchi:** Endi esa bir o'yin o'ynaymiz.

**O'qituvchi:** Ushbu o'yin "Tezkor g'oya" deb nomlanadi. Sizlar 4 kishilik guruhlariga bo'linasiz. Har bir guruhga bitta vazifa beriladi:

### ***Vazifa:***

Maktab, yoshlar hayoti yoki jamiyatdagi bitta muammoni tanlang va unga innovatsion yechim taklif qiling.

Guruhingiz quyidagi savollarga javob topishi kerak:

*Muammo nimada?*

*Sizning g'oyangiz nimadan iborat?*

*Bu g'oya kimlar uchun foydali?*

*Agar amalga oshsa, qanday natija beradi?*

Sizlarga 5 daqiqa vaqt beriladi. So'ng har bir guruh o'z g'oyasini 1 daqiqada qisqa va aniq taqdim etadi.

*O'quvchilar guruhda ishlaydi, taqdimotlar bo'ladi.*

**O'qituvchi:** Juda zo'r! Sizlar hozirgina real hayotda ishlatiladigan innovatsion fikrlash jarayonini boshdan kechirdingiz. E'tibor bering, sizlardan hech kim tayyor bilim so'ramadi, sizlar o'zingiz g'oya yaratdingiz, tahlil qildingiz va himoya qildingiz.

Tasavvur qilaylikki, sizda bir g'oya bor. Ammo uni amalga oshirish uchun joy, laboratoriya, texnikalar kerak, sinovlar o'tkazishingiz kerak. Albatta, bunga mablag' ham kerak bo'ladi. Shunday joyni qanday topsam ekan deb o'ylaysiz. O'zbekistonda innovatsiyalar uchun yaratilgan katta sharoitlardan biri – "Yoshlar texnopark"laridir. Bular shunday ekotimizki, yangi g'oyasi bor har bir insonga o'z g'oyasini amalga oshirishga imkon beradi. Hozir shunday texnoparklardan biriga qilingan videosayohatni tomosha qilamiz. Monitorga qaraymiz.

## **Vizual kontent**

### **Nukusdagi yoshlar texnoparki**

<https://youtu.be/WmAGuKsb8AI>

## **III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)**

**O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, bugungi darsimizda o'zingiz amin bo'ldingizki, innovatsion fikrlash – bu faqat texnologiya yoki kompyuter emas. Bu – fikrlash madaniyati, muammoga befarq bo'lmaslik va yechim topishga intilishdir.

Endi esa darsimizning yakuniy qismiga o'tamiz: ya'ni bugungi o'rganilgan bilimlarni umumlashtiramiz va o'zimizga savol beramiz (*doskaga yozadi*):

***Men bugundan boshlab qanday boshqacha fikrlay boshlayman?***

**O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, bugungi darsda biz innovatsion fikrlashning hayotimizdagi o'rni, yangilik yaratishga bo'lgan intilish, izlanishdagi sabr va intizom haqida suhbatlashdik. Innovatsion tafakkur – insonni o'stiradigan, fikrini boyitadigan, muammolarga noodatiy yondashishni o'rgatadigan eng kuchli intellektual vositadir. Bugun biz zamonaviy dunyoda innovatsion fikrning nechog'lik muhim ekanini yanada chuqurroq anglab oldik.

Innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun nimalar qilishimiz mumkin?

*Masalan: har kuni yangi g'oya o'ylab ko'rish, muammolarni kreativ hal etish, ijodiy mashqlar bajarish, jamoaviy tadbirlarda qatnashish, yangi bilimlarni o'rganishda faol bo'lish va hokazo.*

Bugundan boshlab o'zingizning innovatsion fikrlash qobiliyatingizni yaxshilash uchun qanday amaliy ish boshlaysiz?

*Masalan: kuniga bir xil fikrlashdan uzoqlashish uchun kreativ mashq qilish, yangi texnologiyalar haqida o'qish, noodatiy savollar berish, tajriba o'tkazish, yangi loyihada ishtirok etish va hokazo.*

*(O'quvchilarning javoblari tinglanadi.)*

**O'qituvchi:** O'quvchilar, bir narsani unutmanglar, innovatsion fikrlash tafakkurning yuragi, intellekt dvigatelidir. Yangicha o'ylash, g'oya yaratish va g'oyani amaliyotga tatbiq etish yetuk, zamonaviy va intellektual insonning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion fikrlaydigan insonlar hech qachon och qolmaydi, ishsiz qolmaydi, doim yuksak cho'qqilarni zabt etadi.

Yangilik – har doim izlanishdan tug'iladi. Bu so'zlar bizga shuni eslatadiki, izlanish, tahlil qilish, o'rganish va ijod qilish kelajakni yaratadigan asosiy kuchdir.

Shuning uchun har biringiz o'z innovatsion fikrlash qobiliyatingizni shakllantiring, kreativ yondashuvni hayot tarziga aylantiring, o'ylagan har bir g'oyangizdan xulosa chiqaring, izlanishdan, tajriba qilishdan va yangilik yaratishdan charchamang.

Bugun sizlar innovatsiya, g'oya yaratish, kreativ fikrlash va izlanish haqida juda chiroyli va mazmunli fikrlar aytdingiz. Har doim shunday bilimga chanqoq, izlanuvchan va intellektual jihatdan faol bo'lingki, sizning g'oyalaringiz jamiyatga naf keltirsin.

Xayr, aziz o'quvchilar – kelajakni yaratuvchi yoshlar!